

Yoshlar bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

// 04.07.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yoshlar-bilan-ochiq-muloqot-bo-lib-o-tdi>



Bugun "Ammofos-Maxam" aksiyadorlik jamiyatida boshqaruv raisining ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari v.b Kozimjon Ibragimov boshchiligida yoshlar ishtirokida ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Unda yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlaridagi faolligini oshirish, kitobxonlik, tabiatni asrash va xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish, ushbu yo'nalishlarda ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Shuningdek, 30 iyun - Yoshlar kuni munosabati bilan "Ammofos-Maxam" AJ yoshlariga bayram tabrigi yo'llandi. Qolaversa, bir qator korxona xodimlari estalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.



"Ammofos-Maxam" AJ Axborot xizmati